

Institutimiz yutuqlari



«O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi» III respublika tanlovida "Traktor va avtomobillar" kafedrasida dotsenti, texnika bo'yicha falsafa doktori Nargizaxon Xoliqova Abduvalievna «Eng yaxshi ixtiro va eng yaxshi foydali model» nominatsiyasi bo'yicha 1-o'rinni egalladi. [Batafsil](#)



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti QS reytingida akademik so'rovnoma, ish beruvchilarning bahosi va ilmiy salohiyati kabi mezonlarda Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari universitetlari o'rtasida ijobiy ko'rsatkichlarni qayd etib, 301-350 o'rinlar oralig'idagi universitetlar qatoridan joy oldi.

[Batafsil](#)



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Respublika oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi 2019da 2-o'rini qo'lga kiritdi.

(01.01.2019 yil holatiga) [batafsil](#)



“Scopus Award - 2019” g'oliblari: “Science Direct Top Published University” (“Eng ko'p nashr qilgan universitet”) - Toshkent irrigatsiya va qishloq

xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 06.12.2019 [batafsil](#)



“Scopus Award - 2019” g'oliblari: «Ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi uchun» - Oqil Umurzoqovich Salimov 06.12.2019 [batafsil](#)



“Scopus Award - 2019” g'oliblari: “Science Direct Top Published Researcher” - Olim Po'latov, TIQXMMI professori 06.12.2019 [batafsil](#)



Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchi energiya manbalari kafedrası professori Obid Tursunov **"Scopus Award-2019"** marosimida **"Best Scopus Journey"** nominatsiya bo'yicha taqdirlandi. 06.12.2019 [batafsil](#)



2020 yil 25-26 yanvar kunlari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 28 yilligiga bag'ishlangan sportning **universal jang turi bo'yicha** professionallar o'rtasida 50 kg vazn toifasida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakultetining talabasi **Muxtorov Abbos oliy o'rinni egalladi.**

[Batafsil](#)



Amerika Qo'shma Shtatlarining John Deere kompaniyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti bilan hamkorlikda oliy o'quv yurtida o'quv markazini tashkil etdi. [Batafsil](#)



2019-2020 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi tanlovida 3 nafar magistrantlar qatnashib, Biznes va boshqaruv yo'nalishi bo'yicha Hafizov Bunyodjon Zayniddin o'g'li **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi** sohibi bo'ldi. [batafsil](#)



2019-2020 o'quv yilida GIM fakulteti SXMIM ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi **Burxonova Munisa Ma'murjon qizi O'zbekiston Respublikasi Beruniy nomidagi Davlat stipendiyasi** sohibasi bo'ldi. [Batafsil](#)



2019 yil 5A430503-Intellectual datchiklar va texnologiyalar mutahassisligi magistranti Yangiev Dilshod Asror o'g'li O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutahassislarni xorijga tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasining stipendiya tanlovida Magistratura ta'lim dasturi bo'yicha g'olib deb topildi. [batafsil](#)



Institutimizda ta'lim olayotgan iqtidorli, iste'dodli hamda ijodkor bo'lgan bir guruh talaba-yoshlarning "**Ilhom buloqlari**" nomli to'plami ilk bor chop ettirildi. 12.11.2019yil.

1. [Batafsil](#) 2. [Batafsil](#)



2019 yil 14-16 dekabr kunlari Qozog'istonning Chimkent shahrida bo'lib o'tgan sportning "Turon jangi" turi bo'yicha Osiyo kubogida ishtirok etdi. U 80+ kg toifasida 1-o'rinni egalladi. [Batafsil](#)



"Gidromeliuoratsiya" fakulteti talabasi Tursunov Hojimurod **IFMA Jahon yoshlar Muay Thai** chempionatida **Bronza** medalini qo'lga kiritdi. 10.12.2019 [batafsil](#)



2019 yil may oyida institutda "Davlat kadastrlari" fanidan o'tkazilgan Respublika fan olimpiadasida Geodeziya, kartografiya va kadastr yo'nalishi 3-bosqich talabasi Alimbaev Joldas Kuanishbek ugli faxrli 1-o'rinni egalladi. [Batafsil](#)



"Tafakkur sinovlari" Respublika tanlovining Toshkent shahar 2- bosqich saralash bahsida 1-o'rinni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Irrigator" jamoasi egalladi. [Batafsil](#)

 «Scopus award-2018» taqdirlash marosimida

1. "Breakthrough of the Year" (Yil kashfiyoti) nominatsiyasi – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti.

2. Texnika fanlari nomzodi, dotsent Pulatov Alim Salimovich "Qishloq xo'jaligi fanlarida eng faol olim" nominatsiyasi bo'yicha taqdirlandi.

[Batafsil](#)



Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti qoshidagi innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar klasterining ochilish marosimi.

08.06.2018y. [Batafsil](#)
